

SHARIY NIKOH

*Xasanova Diloram Xotam qizi**O'zbekiston Respublikasi Toshkent Davlat Alfraganus Universiteti**Ijtimoiy fanlar fakulteti psixologiya yo'nalishi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shar'iy nikoh tushunchasi, uning islom huquqidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shar'iy nikohning asosiy shartlari — nikoh taklifi va qabul qilinishi, guvohlar ishtiroki, mahr masalasi hamda tomonlarning roziligi ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, shar'iy nikohning ijtimoiy, axloqiy va huquqiy jihatlari ko'rib chiqilib, uning jamiyat barqarorligidagi roli ochib berilgan. Maqola nikoh institutining diniy-me'yoriy asoslarini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Shar'iy nikoh, islom huquqi, nikoh shartlari, mahr, guvohlar, oila instituti, axloqiy qadriyatlar, diniy me'yorlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие шариатского брака, его сущность и значение в исламском праве. Проанализированы основные условия заключения брака, такие как согласие сторон, наличие свидетелей, выплата махра и соблюдение религиозных норм. Особое внимание уделяется социальным и нравственным аспектам шариатского брака, а также его роли в укреплении семьи и общества. Статья направлена на изучение религиозно-правовых основ института брака.

Ключевые слова: Шариатский брак, исламское право, условия брака, махр, свидетели, институт семьи, нравственные ценности, религиозные нормы.

Abstract: This article examines the concept of Islamic (Sharia) marriage and its significance within Islamic law. The main conditions of marriage, including mutual consent of the parties, the presence of witnesses, the payment of mahr, and compliance with religious requirements, are analyzed. The study also highlights the social, moral, and legal aspects of Sharia marriage and its role in maintaining family stability and social harmony. The article aims to explore the religious and normative foundations of the institution of marriage.

Keywords: Sharia marriage, Islamic law, marriage conditions, mahr, witnesses, family institution, moral values, religious norms

1. Islom.uz (2024). Nikohning shariy hukum.

Yaratuvchi Qodir Alloh yer yuzidagi inson naslining davomli bo'lishiga nikohni shart va sabab qilgan. Insoniyatning vorisligiga eng munosib avlod, albatta nikoh va halollik orqali dunyoga kelgan avlodlardir.

Nikoh lugʻatda “Qoʻshilish”, “Yaqinlik” maʼnolarini anglatadi. Shariʼatda esa, nikoh, “Er kishining nikohida sharʼan moneʼlik boʻlmagan yaʼni ayol kishidan huzur olishini halol qilishdir”.

Niso surasining 3-oyatida:

"Bas oʻzingiz hush koʻrgan ayollardan ikki, uch, toʻrtini nikohlab oling. Agar adolat qila olmaslikdan qoʻrqsangiz, bittani" degan.

Alloh taolo ushbu oyatda moʻmin bandalarga pok yoʻl bilan nikohda boʻlishni amr etmoqda. Ushbu oyat nikohga boʻlgan kuchli targʻibdir. Bundan tashqari musulmon kishi faqat oʻzi nikohda oilali boʻlibgina qolmay, boshqa, oʻz qoʻl ostidagilar va qaramogʻida boʻlganlarning ham nikohiga masʼuldir.

“Oʻzingizdan oilasizlarni, qoʻl va choʻrilaringizdan solihlarini nikohlab qoʻying, agar faqir boʻlsalar Alloh oʻz fazlidan boy qilur. Alloh keng va bilimdon zotdir”. (“Shoʻro” soʻrasi 32-oyat) - deb Alloh taolo marhamat qilgan.

Oilali boʻlish, uylanish va zurriyotli boʻlish barcha Paygʻambar alayhimussalomlarning sunnatlaridir. Termiziy rivoyatida Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Toʻrt narsa Rasullarning sunnatlaridan: “Hayo, xushbuy sepmoqlik, misvok va nikoh” dedilar. Ushbu toʻrt narsa Odam alayhissalomdan tortib, Muhammad sollallohu alayhi vasallamgacha boʻlgan barcha paygʻambarlarning sunnati ekan.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam boshqa bir hadisi shariflarida: “Nikoh mening sunnatimdir. Bas, kim mening sunnatimdan yuz oʻgirsas, mendan emas”, dedilar. Rasulullohning (s.a.v) ushbu soʻzlari imkoni boʻla turib oila qurmaslik, nikohlanmaslik musulmon kishining ishi emasligini anglatmokda.

Yuqorida tanishib oʻtganlarimiz oyati karima va hadisi shariflarda oila qurib yashashga boʻlgan targʻibotlarga guvoh boʻldik. Alloh taolo insonlarni oila boʻlib yashashi hamda oilalardan zurriyotlar dunyoga kelib, inson nasli davom etishini iroda qilgan ekan. Shariʼatimizda oila qurishni ixtiyor qilganlar uchun **bir nechta shartlar qoʻyiladi**. Bular:

Nikohlanishini xohlagan ikki taraf bir-biriga mahram darajasida qarindosh boʻlmasliklari lozim. Islom shariʼati musulmon erkaklarga uylanishni harom qilgan toifalardan baʼzilari “Niso” surasining 23-24 - oyatida bayon qilingan.

“Sizlarga onalaringiz, qizlaringiz, opa - singillaringizning qizlari, emizgan onalaringiz, emikdosh opa-singillaringiz, xotinlaringizning qaramogʻingizdagi qizlari harom qilindi. Agar u(xotin)lar bilan qovushmagan boʻlsangiz qizlariga uylanishingizda) gunoh yoʻq. (Va pushtingizdan boʻlgan oʻgʻillaringizning

1. Islom.uz (2024). Nikohning shariy hukum

xotinlari, opa-singilni qoʻshib xotin qilmogʻingiz harom qilindi. Magar avval oʻtgan boʻlsa mayli. Albatta, Alloh magʻfirat qiluvchi va rahimdil zotdir. Qoʻlingizga mulk boʻlib tushganlardan boshqa erli ayollar ham (harom qilindi). Bu sizlarga Allohning yozganidir”.

Nikoh tuguni **iyjob va qabul** bilan bog‘lanadi. Ya’ni, er-xotinlik aloqasi nikohlanmoqchi bo‘lgan ikki tarafdin birining nikohlanish rag‘batini bildirishi va ikkinchisining o‘sha rag‘batni qabul qilishi bilan yuzaga chiqadi. Ushbu **iyjob va qabulda** ishlatilgan iboralar **abadiylikni ifoda qilishi shart**. Agar bu iboralar vaqtinchalikni ifoda qilsa, nikoh bog‘lanmaydi. Vaqtini tayin qilib “falon oyga, falon yilga nikohlandik” deyilsa, nikoh botil bo‘ladi.

Kelin-kuyov bir-birlarining iyjob va qabul haqidagi **lafzlarini eshitishlari** shart. Shuningdek, kuyov-kelinning iyjob va qabul haqidagi lafzlarini o‘sha yerda hozir bo‘lgan **guvohlar ham eshitishlari** shart.

Ushbu jarayonga **ikki adolatli guvohning** ishtirok etishi ham nikohning aosiy shartlaridan hisoblanadi. Yangi qurilgan oila jamiyatning yangi a’zosi bo‘ladi. Shuning uchun ham jamiyatning vakillari bo‘lmish guvohlar ularning halol-pok oila qurayotganlariga jamiyat nomidan shohid bo‘ladilar va buni boshqa kishilarga ham yetkazadilar. Shuningdek, er-xotin orasida nikoh masalasida da’volashuv bo‘lib qolsa, qozining oldida guvohlik ham beradilar. Ushbu e’tibordan nikoh guvohsiz bo‘lishi mumkin emas.

Mahr belgilanishi ham nikohning shartlaridan biridir. Ya’ni, er tomonidan xotinga beriladigan sovg‘aning miqdori yoki nimaligi aniqlab olinishi kerak.

Nikohga ta’rif bergan Shayx Muhammad Abu Zahra “Nikoh erkak va ayol orasidagi yaqinlikni, ikkisining o‘zaro hamkorligini ifoda qiluvchi hamda ikkisining huquq va majburiyatlarini chegaralovchi aqddir”, -deganlar.

Ming afsuski, hozirgacha musulmonlar orasida nikohning asli, oila poydevori, haromni halol qiladigan, boshqalar uchun shunchaki odat bo‘lgan er-xotinlik aloqasini ibodat darajasiga ko‘taradigan asosiy omil bo‘lmish nikoh aqdiga unchalik ahamiyat bermaydigan, unga “eskicha odat” deb qaraydiganlar bor.

Bu o‘ta noxush holatga chek qo‘yishimiz kerak. Aynan shar’iy nikoh saodat manbai ekanini anglab yetishimiz va uni qadrlay bilishimiz lozim. Shari’atning har bir musulmon uchun farz bo‘lgan ushbu hukmini yaxshilab o‘rganishimiz zarur.

Oila tushunchasi Konstitusiyamizga ham kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi maqomi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Bosh qomusimizning 63-moddasida bu o‘z ifodasini topgan. Unda oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekanligi, jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga egaligi mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqlilikka asoslanishi belgilangan‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida ham nikoh tuzish tartibi belgilangan bo‘lib, kodeksning 13-moddasida O “Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan

1. Islom.uz (2024). Nikohning shariy hukumini tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas”, -deya qayd etilgan.

Xo'sh, bizda shar'iy nikoh o'qish kim tomonidan va qanday amalga oshiriladi? O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish xaqida" gi nizomini tasdiqlash to'g'risidagi qarori, O'zbekiston musulmonlari idorasining "O'taliqni belgilash va noqonuniy nikohlarni oldini olish maqsadida" gi buyrug'i 2-bandi, "Nikoh o'qishdan oldin joylardagi FHDYO bo'limlarining ma'lumotnomasiga qat'iy e'tibor qaratilishi", ushbu qarorning birinchi bandida esa "Shar'iy nikohlarni barcha rasmiy masjid imom-xatiblari va imom-noiblari tomonidan amalga oshirilishi" belgilab qo'yilgan. Mazkur O'MI buyrug'ining 4-bandida "norasmiy shaxslar tomonidan shar'iy nikoh o'qilishini oldini olish uchun imom-xatiblarga zarur chora-tadbirlar ishlab chiqish" yuklatilgan. Mana shularga binoan FHDYO bo'limlarida nikohi qayd etilib, bu haqda tuzilgan guvohnoma bilan fuqarolar rasmiy faoliyat olib borayotgan masjidlarning imom xatib va imom noiblariga murojaat qiladilar. Shundan so'ng imom xatiblar tomonidan ularga shar'iy nikoh o'qiladi hamda bu haqda masjidning "Nikohni qayd etish" daftariga ma'lumot kiritiladi.

Rasmiy nikohdan o'tmagan, FHDYO guvohnomasiga ega bo'lmagan yosh oilalar ajrashib, ona o'zining tirik yetim bolasi bilan ko'chada qolishini hisobga oladigan bo'lsak, shar'iy nikoh shartlariga hukumat tomonidan beriladigan FHDYO guvohnomasini surishtirmay nikoh o'qilishi yosh oilalarni ijtimoiy huquqlarini kamsitish bo'ladi. Guvohnomani ko'rib, so'ngra nikoh o'qilishi esa huquqiy jamiyat barpo qilinayotgan bir vaqtda yosh oilalarning ijtimoiy huquqini muhofaza qilishdir.

Xulosa:

Shariy nikoh Islom dinida oila qurishning yagona halol va farz yo'li bo'lib, u Alloh taoloning amri va Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning sunnatiga asoslanadi. Nikohning to'g'ri bo'lishi uchun ijob va qabul, valiy (vasiy), adolatli guvohlar, mahr va halol maqsad kabi shartlarga qat'iy rioya qilinishi shart. Bu shartlar oilani zinodan, noqonuniy munosabatlardan himoya qilib, nasl pokligini va jamiyat axloqini saqlaydi.

Bugungi kunda ko'pchilik faqat davlat ro'yxatidan o'tgan fuqarolik nikohini yetarli deb biladi, ammo Islom nuqtai nazaridan bunday nikoh shariy shartlarga javob bermasligi sababli haqiqiy oila vujudga keltirmaydi. Shuning uchun har bir musulmon davlat ro'yxati bilan birga albatta shariy nikohni ham o'tkazishi lozim.

Shariy nikoh er va xotin o'rtasida mehr-oqibat, mas'uliyat va Alloh roziligiga asoslangan munosabatlar o'rnatib, oilani mustahkam bog'laydi. U nafaqat ikki insonni, balki butun jamiyatni poklik, tinchlik va baraka bilan boyitadi. Har bir yoshga yetgan musulmon nikohlanishga qodir bo'lsa, bu ibodatni ado etishi orqali o'z dinini, axloqini va kelajak avlodini himoya qilgan bo'ladi. Shariy nikoh – inson hayotidagi eng muhim va savobli amallardan biridir.